



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

11 (49) 2022



Received: 10.10.2022
Accepted: 21.10.2022
Published: 10.11.2022

UDK 618.11-006.2.04.089.87

TUXUMDONLAR FOLLIKULYAR KISTALARINI LAPAROSKOPIK OLIB TASHLASHDAN SO'NG AD'YUVANT TERAPIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Gafurova E.O., Xolboeva S.Sh., Nigmatova G.M., Shukurov F.I.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

✓ Rezyume

Kuzatuv ostida 90 nafar follikulyar kistani laparoskopik (TFK) sababli laparoskopik jarroxlilik amaliyotini o'tkazgan ayollar bo'ldi. Ulardan 60 nafari (asosiy gurux), laparoskopik jarroxlilik amaliyotidan so'ng estrogen-progestogen saqlovchi preparati yordamida ad'yuvant terapiya o'tkazilgan ayollar tashkil etdi. Nazorat guruxini esa xuddi kasallik bilan jarroxlilik amaliyoti o'tkazgan biroq ad'yuvant terapiyani rad etgan ayollar tashkil etdi. Ayollarda TFK usulda olib tashlashgacha o'tkazilgan gormonal tadqiqotlar ularda FSGning yuqori darajasini – $14,7 \pm 0,16$ ME/l, LGning past darajasi- $7,8 \pm 0,38$ ME/l, estradiol gormonining ham yuqori darajasi $137,6 \pm 12,11$ pg/ml, progesteron gormonining esa past – $1,4 \pm 0,09$ ng/ml miqdori aniqlandi ($p < 0,001$). Jarroxlilik amaliyoti o'tkazilgandan 3 oy o'tgach qo'llanilgan ad'yuvant terapiyadan so'ng gormonal tadqiqotlarni natijalari FSGning $10,4 \pm 0,16$ ME/l.gacha pasayganligi LGning $10,0 \pm 0,46$ ME/l.gacha ortganligi ($p < 0,001$), E2 miqdorining ham – $108,8 \pm 11,87$ pg/ml.gacha pasayganligini aniqlandi ($p > 0,05$). Jarroxlilikdan keyin 3-6 oy davomida kuzatuv natijalari 52 nafar (85%) ayollarda homiladorlik bo'lganligini aniqlandi. Nazorat guruxidagi 12 nafar (40%) ayollarda follikulyar kistaning residivi kuzatilib, 6 nafar (20%) ayollardagina homilador bo'lganligini aniqlandi.

Kalit so'zlar: Tuxumdonlar follikulyar kistalari, laparoskopik operatsiya, davolash samaradorligini baholash

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ АДЬЮВАНТНОЙ ТЕРАПИИ ПОСЛЕ ЛАПАРОСКОПИЧЕСКОГО УДАЛЕНИЯ ФОЛЛИКУЛЯРНЫХ КИСТ ЯИЧНИКОВ

Гафурова Э.О., Холбоева Э.О., Шукуров Ф.И.

Ташкентская медицинская академия

✓ Резюме

Под наблюдением находилось 90 женщин. Из них 60 пациенток (основная группа), принимающих Мидиану в качестве адьювантной терапии в послеоперационном периоде, и 30 больных таким же диагнозом, но отказавшихся от адьювантной терапии. Результаты гормонального исследования у пациенток с ФКЯ до лапароскопической операции показали высокий уровень ФСГ – $14,7 \pm 0,16$ ME/l и низкую концентрацию ЛГ – $7,8 \pm 0,38$ ME/l. Содержание Э2 в основной группе также было высоким – $137,6 \pm 12,11$ нг/мл, а уровень прогестерона также был значительно ниже $1,4 \pm 0,09$ нг/мл ($p < 0,001$). Результаты гормонального исследования у пациенток через 3 мес после лапароскопического удаления ФКЯ на фоне адьювантной терапии препаратом, содержащим 3 мг дроспиренона и 0,03 мг этинилэстрадиола, показали снижение ФСГ до $10,4 \pm 0,16$ ME/l и повышение ЛГ до $10,0 \pm 0,46$ ME/l ($p < 0,001$), снижение E2 в группе до $108,8 \pm 11,87$ нг/мл ($p > 0,05$). Применение препарата Мидиана® в качестве адьювантной терапии у женщин после лапароскопического удаления фолликулярных кист яичников привело к восстановлению фертильности в 4,1 раза (у 85% женщин) и профилактики рецидивов в 2,4 раза.

Ключевые слова: фолликулярные кисты яичников, лапароскопическая хирургия, оценка эффективности лечения.

EVALUATION OF THE EFFICACY OF ADJUVANT THERAPY AFTER LAPAROSCOPIC REMOVAL OF OVARIAN FOLLICULAR CYSTS

Gafurova E.O., Xolboeva S.Sh., Shukurov F.I.

Tashkent Medical Academy

✓ *Resume*

90 women were under supervision. Of these, 60 patients (main group) taking Midiana as adjuvant therapy in the postoperative period, and 30 patients with the same diagnosis, but refused adjuvant therapy. The results of hormonal studies in patients with FCO before laparoscopic surgery showed a high level of FSH - 14.7 ± 0.16 IU/l and a low concentration of LH - 7.8 ± 0.38 IU/l. The content of E2 in the main group was also high - 137.6 ± 12.11 pg/ml, and the level of progesterone was also significantly lower than 1.4 ± 0.09 ng/ml ($p < 0.001$). The results of a hormonal study in patients 3 months after laparoscopic removal of FCO during adjuvant therapy with a drug containing 3 mg of drospirenone and 0.03 mg of ethinyl estradiol showed a decrease in FSH to 10.4 ± 0.16 IU/l and an increase in LH to 10.0 ± 0.46 IU/l ($p < 0.001$), decrease in E2 in the group to 108.8 ± 11.87 pg/ml ($p > 0.05$). The use of Midiana® as adjuvant therapy in women after laparoscopic removal of ovarian follicular cysts led to the restoration of fertility by 4.1 times (in 85% of women) and the prevention of relapses by 2.4 times.

Key words: follicular ovarian cysts, laparoscopic surgery, evaluation of treatment effectiveness.

Dolzarbligi

Novulyatsiya holati bilan bog'liq ayollar bepushtligining sabablari tarkibida tuxumdonlar follikulyar kistalari (TFK) 19,2%ni tashkil qiladi [1,2]. Epidemiologik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda reproduktiv yoshdagi ayollar orasida tuxumdonlar follikulyar kistalari salmog'ining ko'payishi kuzatilmoqda [3,4]. TFK sabab bepushtlikni konservativ davolash samara bermagan holatlarida hamda kistaning o'lchami 5sm.dan katta bo'lgan holatlarda kistani laparoskopiya davolash o'rindir [5,6]. Biroq, davolanishning yakuniy samaradorligi ushbu toifadagi ayollarda reproduktiv funksiyasini to'liq tiklashga qaratilgan terapiyaning keyingi bosqichi bilan belgilanadi [7,8]. TFKni endoxirurgik davolashdan so'ng ayollarda reproduktiv funksiyasini tiklash uchun hozirgi kunga qadar qo'llanilib kelayotgan davolash usullarining samaradorligini pastligi, ularda fertillikni tiklash uchun yangi klinik yondashuvlarni izlab topish zarurligini taqozo etadi [9,10].

Tadqiqotning maqsadi tuxumdon follikulyar kistalarini laparoskopiya olib tashlashdan keyin kombinirlangan estrogen-gestagen saqlovchi Midiana® preparatining ad'yuvant terapiyada samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

Materiallar va usullar

Kuzatuv 90 nafar ayol bo'ldi. Ulardan 60 nafar bemor (asosiy guruh) follikulyar tuxumdon kistasi tashxisi bilan operatsiya qilingan, operatsiyadan keyingi davrda Midiana®ni ad'yuvant terapiya sifatida qabul qilgan, taqqoslash guruxini esa xuddi shu tashxis bilan operatsiya qilingan, ammo gormonal ad'yuvant terapiyadan bosh tortgan 30 nafar ayollar tashkil etdi. Barcha bemorlarda gormonal, ultratovushli va endoskopik tadqiqotlar o'tkazildi. Olingan natijalarni statistik qayta ishlash Statistica for Windows 7.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Ma'lumotlar $M \pm m$ sifatida taqdim etiladi. $p < 0,05$ ga to'g'ri keladigan farqlar statistik ahamiyatga ega deb hisoblandi.

Natija va tahlillar

Tadqiqotga kiritilgan barcha ayolarda ad'yuvant terapiyadan oldin va keyin barcha bemorlarda gormonal tadqiqotlar o'tkazildi. Gormonal taxlil natijalariga ko'ra follikulastimullovchi gormon (FSG)ning yuqori darajasi - $14,7 \pm 0,16$ ME/l va lyuteinlovchi gormon (LG) ning esa past miqdori - $7,8 \pm 0,38$ ME/l.ni ko'rsatdi. Estradiol (E2) gormoning miqdori, taqqoslash guruhi ko'rsatkichi $122,4 \pm 8,7$ pg/ml.ga nisbatan ancha yuqori $137,6 \pm 12,1$ pg/ml.da aniqlandi ($r < 0,001$). Progesteron gormoni darajasi ham guruxlarda mos ravishda $1,4 \pm 0,09$ ng/ml.dan sezilarli darajada past miqdorla aniqlandi(jadvalga qarang).

Tadqiqot o'tkazilayotgan ayollarda 3 mg drospirenon va 0,03 mg etinilestradiolni o'z ichiga olgan preparatni qabul qilguncha va uni ichib bo'lgandan keyingi gormonal statusini holati, M±m

Ko'rsatkichlar	Asosiy gurux, n=60		Taqqoslash guruxi, n=30
	Davolashgacha	Davolashdan keyin	
FSG, ME/l	14,7±0,16	10,4±0,16 ^{***^^}	4,3±0,17
LG, ME/l	7,8±0,38 [^]	10,0±0,46 ^{***^^}	10,5±0,41
E ₂ (pg/ml)	122,4±8,7	108,8±11,87	122,4±8,7
Progesteron (ng/ml)	1,4±0,09 [^]	2,4±0,09 ^{***^^}	1,7±0,07

Izox: * – davolash boshlagungacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ishonchli (* – $p < 0,05$, *** – $p < 0,001$) ^ – taqqoslash guruxi ko'rsatkichlariga nisbatan ishonchli (^ – $p < 0,05$, ^^ – $p < 0,01$, ^^ – $p < 0,001$)

TFKni laparoskopik olib tashlashdan keyin 3mg drospirenon va 0,03 mg etinilestradiol salovchi preparat yordamida o'tkazilgan ad'yuvant gormonal terapiyadan so'nggi gormonal tadqiqot FSGning pasayganligi 10,4±0,16 ME/l, LG miqlorining ortishi 10,0±0,46 ME/l ($p < 0,001$), E₂ miqdorining pasayishi-108,8±11,87 pg/ml va progesteron gormoni miqdorining 2,4±0,09 ng/ml.gacha ortishi kuzatildi ($p > 0,05$). Tuxumdonlarning follikulyar kistalarini laparoskopik olib tashlaganidan keyin ayollarda 3 oy davomida Midiana® ni ad'yuvant terapiya sifatida qo'llash jinsiy steroid gormonlar darajasini me'yorlashuviga va ayollarning 85%da fertillikni tiklashga olib keldi. Barcha ayollar 3 oy davomida 3 mg drospirenon va 0,03 mg etinilestradiolni o'z ichiga olgan preparatni yaxshi qabul qildilar. Asosiy guruxdagi hech bir ayolda 1 yil davomida kuzatganda kistani qaytalanishi (reüdivi) holatlari kuzatilmadi. Ulardan 52 nafarida (85%) homiladorlik bo'ldi. Taqqoslash guruxining 12 nafarida (40%) kistani qaytalashi va atigi 6 (20,0%) nafarida homiladorlik kuzatildi. Shunday qilib, TFK ni laparoskopik olib tashlashdan keyin ad'yuvant gormonal terapiyani o'tkazilishi 85% ayollarda fertillikni tiklanganligi bilan yuqori samarador ekanligini isbotladi.

Xulosa

Tuxumdonlar follikulyar kistlarini endoxirurgik olib tashlagandan so'ng, 3mg drospirenon va 0,03mg etinilestradiol saqlovchi kombinirlangan estrogen-gestogenli preparat yordamida ad'yuvant gormonal terapiyani o'tkazish, ayollarda fertillikni 4,1 barobarga tiklanishi (85% ayollarda) olib kelib hamda kistalarni jarroxlikdan keyingi davrda residivini profilaktikasida ijobiy samara ko'rstaib o'zining yuqori samarador preparat ekanligini isbotladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Атабиева Ф.Х., Узденова З.Х. Эффективность и приемлемость применения микродозированного контрацептива Нова Ринг у женщин репродуктивного возраста с фолликулярными кистами яичников // Известия Кабардино-Балкарского научного центра РАН. – Налчик, 2012. - №1. – С. 205–210.
2. Ахундова Н. Н. Сочетание эндоскопических методов в диагностике и лечении различных форм бесплодия у женщин // Хирургия. Журнал им. Н. И. Пирогова. – 2017.– № 7.– С. 44–48.
3. Вартамян С.Л., Э. И. Бабаева. Состояние репродуктивной системы и овариального резерва у женщин с опухолями и опухолевидными образованиями яичников (отдаленные результаты) //Вестник РУДН. Серия: Медицина. –2016.–№2.–С.138-142.
4. Краснополская К.В, Назаренко Т.А. Клинические аспекты лечения бесплодия в браке. - М.: ГЕОТАР-Медиа, 2014. - 376 с.
5. Шукуров Ф.И., Аюпова Ф.М. Роль адьювантной гормональной терапии в восстановлении репродуктивной функции у женщин после эндохирургического лечения фолликулярных кист яичников// Гинекология. 2021; 23, №1: С. 68–72.
6. Abduljabbar H.S. Review of 244 cases of ovarian cysts / H.S. Abduljabbar, Y.A. Bukhari, G.A. Al Hachim [et al.] // Saudi Medical Journal. - 2015. -Vol. 36, № 7.- P. 834-838.
7. Alammari R. Impact of Cystectomy on Ovarian Reserve: Review of the Literature / R. Alammari, M. Lightfoot, H.C. Hur // J Minim Invasive Gynecol.- 2017. -Vol. 24, № 2. - P. 247-257.
8. Grimes D.A., Jones L.B., Lopez L.M. et al. Oral contraceptives for functional ovarian cysts // Cochrane Database Syst. Rev. - 2014. - Vol. 4. R.16.
9. Hassa H., Aydin Y. The role of laparoscopy in the management of infertility // J Obstet Gynaecol. – 2014. – Vol. 34(1). – P. 1-7.
10. Kurman R.J., Cargangiu M.L., Herrington C.S. et al. IAR Lion 2014.WHO Classification of female reproductive organs. WHO Classification of Tumours, Volume 6, No 6, P.307.

Qabul qilingan sana 10.10.2022

<i>Yuldashev S.Zh., Ibragimova D.N., Shukurova D.B.</i> CORRECTION OF SLEEP DISTURBANCES IN PARKINSON'S DISEASE USING CIRCAD RATE REGULATOR THERAPY.....	318
<i>Khalmatova Uneta1 Zuenkova Yuliia</i> EXPERIENCE OF ORGANIZING THE RADIO THERAPEUTIC SERVICE AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	323
<i>Zhumaev A.U., Gafur-Akhunov M.A.</i> RESULTS OF COMPREHENSIVE CANCER TREATMENT MOUTH.....	329
<i>Yusupaliyeva G.A., Abzalova Sh.R., Yuldashev T.A., Sultanova L.R., Abzalova M.Ya.</i> OPTIMIZATION OF MULTIPARAMETER ULTRASOUND DIAGNOSIS AND PREDICTION OF OUTCOMES OF CHRONIC KIDNEY DISEASE.....	336
<i>Gafurova E.O., Xolboeva S.Sh., Shukurov F.I.</i> EVALUATION OF THE EFFICACY OF ADJUVANT THERAPY AFTER LAPAROSCOPIC REMOVAL OF OVARIAN FOLLICULAR CYSTS.....	341
<i>N.Z. Yuldasheva., F.I. Shukurov, G.M. Nigmatova</i> A NEW APPROACH IN THE TREATMENT OF MENSTRUAL CYCLE DISTURBANCES IN WOMEN WITH COVID-19.....	344
<i>Odilova G.R.</i> FEATURES OF MORPHOMETRIC PARAMETERS OF REFRACTIVE PARTS OF THE EYE AND FUNDUS ELEMENTS IN CHILDREN OF THE SECOND PERIOD OF CHILDHOOD WITH DIABETES MELLITUS AND MYOPIA.....	349
<i>S.F. Suleymanov</i> CHARACTERISTICS OF THE IMMUNE STATUS WITH THE SIMULTANEOUS COURSE OF CHRONIC CHOLECYSTITIS AND METABOLIC SYNDROME.....	361
<i>G.S. Babadzhanova, M.D. Abdurazakova, N.S. Razzakova, Sh.I. Ismailova</i> PECULIARITIES OF THE COURSE OF PREGNANCY IN DISEASES OF THE BILARY SYSTEM.....	366
<i>Eronov Yo.K., Mirsalixova F.L.</i> INDICATIONS FOR CYTOLOGICAL EXAMINATION IN THE EARLY DIAGNOSIS OF PERIODONTAL DISEASES IN CHILDREN WITH DISABILITIES.....	371
<i>Akhmedov Alibek Bakhodirovich</i> EVALUATION OF THE EFFICIENCY OF VARIOUS METHODS OF TREATMENT OF PERIODONTITIS IN PERMANENT TEETH WITHOUT ROOT FORMATION.....	279
<i>Safoev B.B., R.R.Arashov, Sh.Sh.Yarikulov,</i> ANALYSIS OF THE RESULTS OF SURGICAL TREATMENT OF PATIENTS WITH LIVER CAVITIES WITH SIMPLE AND COMPLEX INTRAHEPATIC ARRANGEMENTS IN A COMPARATIVE ASPECT.....	385
<i>Eshonov O.Sh.</i> EVALUATION OF THE EFFICACY OF LYMPHOTROPIC THERAPY IN CRITICAL CONDITIONS IN PATIENTS WITH CRANIO-BRAIN INJURY.....	394